

ZARAFSHON VOHASI ATROFIDAGI QADIMIY SAVDO MARKAZLARI

Jalilov Alisher Xudoyberdiyevich,

Buxoro tumani 16-maktab tarix fani o‘qituvchisi

O‘rta Osiyo hududi uzoq o‘tmish zamonlardan o‘zining tabiiy-geografik imkoniyatlarining qulayligi tufayli o‘z hududi doirasida qator dehqonchilik vohalarini tashkil topishiga zamin yaratdi. Ana shunday vohalardan biri Zarafshon vohasidir. Zarafshon vohasi aholisining mehnat faoliyati asosida vujudga kelgan dehqonchilik madaniyati o‘z zaminida astasekin ilk madaniy qatlamlar va shaharlar paydo bo’lishiga olib keldi. Bu kabi ma’lumotlarni o‘tmishda yaratib qoldirilgan bir qancha manbalar orqali o’rganishimiz mumkin. Mana shu manbalarda alohida qayd etilgan dehqonchilik va hunarmandchilik xo’jaligi rivoji asosida paydo bo’lgan qadimgi madaniyat markazlaridan biri So’g’diyona yurtidir.

Zarafshon vohasining qadimgi holati, hududi asosan mana shu zaminning ko’hna va boy, tarixan uzoq davrlarga borib taqaladigan madaniy merosiga bog’lanadi. Qadimgi So’g’diyona haqida fikr borar ekan, ko’z o’ngimizda aholining faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarga ega makon va yuksak madaniyat markazi gavdalanadi.O‘rta Osiyoning boshqa yirik madaniyat markazlari kabi bu hududda yashovchi aholi o’troq dehqonchilik ayniqsa keng tarmoqli hunarmandchilikda ancha taraqqiy etib borgan. Shu bois shahar aholisining turmushi yangilanib,kuchli davlat uyushmalariga

asos solingan. Ko'hna So'g'diyonaning bosh shaharlaridan biri Samarqand bo'lib, bu shahar Afrosiyob deb atalgan. Bundan 2.5 ming yil ilgari uning tub aholisi Smarakansa deb yuritilgani manbalarda qayd etiladi. Afrosiyobda o'tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan asori-atiqalar bu shaharning o'tmisht davrlardagi hayotini yorqin aks ettirishga imkon berdi. Sug'diyilar yashagan hududlarda olib borilgan qazishmalar natijasida Afrosiyobning janubiy-g'arbidan V asrga oid so'g'd chaqalari va ilmoqsimon dastali ko'za siniqlari, sopol haykalchalar VI-VII asrlarga oid sopol ossuariylar topilgan. Mug' tog'idan topilgan hujjatlar bu hududning siyosiy tarixi, huquq qonunlari, iqtisodi to'g'risida, Afrosiyob devoriy rasmi esa uning VII asrdagi madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Afrisiyob devoriy rasmidagi elchi tasvirida 16 satrdan iborat ishonch yorlig'i yozilgan. Olimlar bu suratlarga qarab qadimgi ajdodlarimizning diplomatik munosabatlari, rasm-rusumlari, an'analari haqidagi tasavvuriy fikrlarini ilmiy tahlil qilishga harakat qilishdi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha ,qadimiylipak yo'li bo'y lab olib borilgan savdo aloqalarida so'g'd savdogarlarining o'rni juda yuqori bo'lgan. So'g'd savdogarlarining obro'-e'tibori nafaqat o'z hududlarida, balki boshqa mamlakatlarning savdo-sotiq ishlari ancha taraqqiy etgan shaharlarida ham nufuzi baland bo'lgan. Tarixchi olim A.Asqarov so'g'd savdogarlarining savdo aloqalari haqida fikr yuritar ekan, ularga ko'ra so'g'd savdogarlari Sharqiy Turkistonga miloddan avvalgi IV-III asrlarga kelib qolganligi va milodiy eradan boshlab to IX asrgacha so'g'd tili ipak yo'llari doirasida jahon savdo tili darajasigacha ko'tarilganini ta'kidlaydi [1: 183-b.]. Shu fikrlardan ko'rinish

turibdiki, bunday yuksak bilim va tafakkurga ega so'g'd savdogarlari o'z mavqelarini doimo saqlab turish uchun astoydil kurashib kelishgan. Shu bois so'g'diyilar o'z bolalarini 5 yoshdan o'qish va yozish, hisobga o'rgatishlari bolalari balog'atga yetishgach esa savdo karvonlariga qo'shib, savdogarlikka o'rgatilgani qadimgi xitoy manbalarida yozib qoldirilgan. Savdo aloqalari rivojlanib borgani bois ko'hna karvon yo'llari bo'y lab ularning shaharlari barpo etilgan.

Umuman olganda qadimgi so'g'diyrlarning ona zamini sanalgan So'g'd hududida ayniqsa VII-VIII asrlarda madaniy hayot ancha taraqqiy etganligi turli davrlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlanganligini ko'ramiz. Shu davrlarda shaharlarda shoyi to'qish, kulolchilik, savdo rivojlangan. Qadimgi Zarafshonning yana bir madaniy jihatdan o'z davrida ancha rivojlangan hududlaridan biri bu ko'hna va boqiy Buxorodir. Shaharning paydo bo'lishi va shahar madaniyatining shakllanib, rivojlanishi tarixini o'rganish maqsadida turli yillarda bu hududda arxeologlar tomonidan qazishma ishlari olib borilgan. Ular orasida mashhur arxeolog Ya. G'ulomov rahbarligidagi ekspeditsiya diqqatga sazovordir.

1960-yillarning oxirida boshlangan bu tadqiqotlar 1980-yillargacha keng ko'lamba o'r ganilib, shaharning qadimgi tarixini yoritishda juda muhim ma'lumotlarni fanga ma'lum qildi. Ularga ko'ra o'lkaning qadimgi aholisi tabiat, o'ziga xos madaniyati, ibridoiy xo'jaliklarining shakllanishi, qadimgi qishloq va shaharlarning paydo bo'lishi haqidagi faktik ma'lumotlar birlashtirdi. Bu nafaqat Buxoroning, balki Zarafshonning shaharsozlik madaniyatini yanada oydinlashtirishda katta ahamiyat kasb

etdi. Qadimshunos olimlarning tekshirishlari shuni isbotladiki, Zarafshon vohasida urbanizatsiya jarayoni ancha erta boshlangan.

R.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, miloddan avvalgi II ming yillikning boshlarida Zarafshon vodiysi quyi qismidagi qabilalarning chorvachilik xo'jaligida ham tez suratlar bilan yuksalish jarayoni kuzatiladi. Ayni shu davrda Zarafshon vodiysining yuqori va o'rta qismlarida son-sanoqsiz soy etaklarida o'troq dehqonchilik jamoalari, qishloqlari paydo bo'lib, ularning atrofdagi chorvador aholi bilan bo'lgan muloqoti kuchayib borganligini aytib o'tadi. Olimning fikricha bu bir tomondan, dehqonchilik hamda chorvachlikning yuksalishi, ikkinchi tomondan, kasb-hunarni, xususan, ma'dan eritish va undan qurol-yarog', asbob-uskuna va zebi-ziynatlar yasashning rivoj topishi, uchinchi tomondan esa, dehqon va chorvador aholilar o'rtasida ayrbosh savdoning kengayib borishi Zarafshon vodiysida ham urbanizatsiya jarayonini kuchaytirib, qadimgi So'g'd madaniyatining shakllanishiga olib keldi [2: 35-b.]. Mana shu so'g'd madaniyatiga oid qishloqlar keyinchalik Buxoro vohasining shimoliy-g'arbiy hududlarida o'troq dehqonchilik qishloqlari vujudga kelgan, hamda yillar o'tib uning zaminida yangi-yangi shaharlar qad ko'targan.

Buxoro turli davrlarda, turli hukmdorlar boshqaruvida o'zining yangicha qiyofasini aks ettirib bordi, unig iqtisodiy yuksalishida qadimgi karvon yo'llarining o'rni juda beqiyos. Bu karvon yo'llarining eng ko'hna va yirigi hisoblangan Buyuk ipak yo'li bu shaharning dunyoga yuz tutishida, balki o'z hududida yashovchi aholining turmush-tarzini farovon bo'lishida katta hissa qo'shadi. Qadimda Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo

hududidan o'tgan karvon yo'llarida Buxoroning alohida o'rni bo'lgan. Jumladan xitoysunos olim A.Xo'jayevning "Buyuk ipak yo'li" kitobida Pey Jyuyning "G'arbiy mamlakatlarga oid chizma xaritalar va xotiralar" asarining 3-bobida "Dunxuandan G'arbiy dengizgacha 3 yo'l bor, shundan ikkinchi yo'l "o'rta yo'l" deb atalib, u Turfon, Qorashahar, Kuchar, Qashqar, Pomir dovonlari, Farg'ona, Samarqand, Kattaqo'rg'on, O'ratepa, Buxoro kabi xonliklar va Eron orqali O'rta yer dengiziga borgan" [3: 107-b.]. Yuqoridagi fikrlardan ko'rinish turibdiki, Buxoro hududi ham Xitoy va Turkiston o'lkasidagi Karvon yo'lining tayanch nuqtalaridan biri bo'lgan. Buyuk ipak yo'li orqali Markaziy Osiyoga, shu jumladan Buxoro o'lkasiga ham o'sha davrlardagi Xitoyning asosiy eksport mahsulotlaridan ipak matolar, choy, chinni idishlar va boshqa bir qator buyumlar olib kelingan hamda bozorlarda ularning savdosi ancha yuqori bo'lgan. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, Buyuk ipak yo'li bo'ylab olib borilgan savdo ishlarida buxorolik savdogarlarning obro'-e'tibori baland bo'lib, savdogarlarga ko'plab imtiyozlar berilgan. O'tmish manbalarida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, asrlar davomida Markaziy Osiyoning bosh shaharlaridan sanalgan Buxoro yirik savdo markaziga aylanganligi sababli, bu yerda savdogarlar ko'p to'planishgan. Ular asosan shahar markazlari atrofida qurilgan bozorlar atrofida joylashib, savdo qilishgan. Ana shu bozorlarda, bozorga olib keladigan asosiy yo'llarda bir qancha savdogarlar va xaridorlarga xizmat ko'rsatuvchi do'konlar bo'lgan. Xuddi shu kabi rivojlanish Zarafshon vohasining yana boshqa hududlarida ham kuzatilgan.

Ushbu vohaning yana bir durdona shahri qadimiylar Karmanadir. Karmana – Quyi Zarafshon vohasida joylashgan yirik madaniy markaz sifatida o’tmish davrlarda ancha tanilgan. Zarafshon vohasining boshqa hududlarida yashovchi aholisi singari Karmana aholisi ham madaniy va iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlanib borgan. Zero, bu shahar Buyuk ipak yo’li chorrahasida joylashgan, balki geografik jihatdan qulay hududda ham joylashgan bo’lib, Zarafshon daryosi mahalliy aholining turli xo’jalik tarmoqlarining rivojlanishi uchun ijobjiy ta’sir o’tkazgan. Karmananing o’tmish manzaralari haqida fikr borar ekan, uning atrofidagi qishloqlar tarixi paleolit davriga borib taqalishi ta’kidlnadi. Karmananing qadimgi manzilgohlaridan sanalgan Uchtutda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar shuni izohlaydiki, Quyi Zarafshonda ibridoiy madaniyat ildizlari uzoq tarixga ega bo’lib, ibridoiy konchilik qoldiqlaridan topilgan turli xil ashyoviy topilmalar bundan 5-7 ming yil muqaddam bizning zaminimizda tog’-kon sanoatiga asoslangan mehnat uyushmasi mavjud bo’lganligi ilmiy asoslanildi. Shuningdek, Sarmishsoy darasida qoyatoshga bitilgan petrogliflar ham shu hudud aholisining turmush-tarzi haqida biy ma’lumotlarni o’zida aks ettirgan. Bu tasvirlar o’sha davr suratkashlarining ibridoiy san’atdan qay darajada xabardorligi, suratkashlik mahoratini o’zida namoyon etib, o’z davri haqida kelajak avlodlarga muhim voqealar haqida so’zlaydi. Karmana qadim-qadimdan o’zining xushmanzara tabiat, boy tabiiy zahiralarga egaligi, iqtisodiy va madaniy jihatdan ravnaq topgan qishloqlari, o’z zaminida bo’y cho’zgan me’moriy obidalari bilan dovrug’i dunyoga ketgan shaharlardan biri sanalgan. Uning taraqqiy etishida, Buyuk

ipak yo'lining ta'siri ham yuqori bo'lgan, negaki Karmana qadimiy ipak yo'li ustida joylashgan shaharlardan biri bo'lgan. Ipak yo'li shaharning Janubiy-Sharq tomonidan boshlanib, uning Janubiy-G'arb tomonidan o'tib ketgan [4: 11-b.]. Ushbu ma'lumotlarga e'tiborimizni qaratar ekanmiz, katta ahamiyatga ega bo'lgan ipak yo'li chorrahasida joylashgan shaharlar boshqa shaharlarga qaraganda jadal rivojiana borgan. Shu bois Karmana ham o'zdavrida yirik savdo markazi bo'lganligi mubolag'a emas. Karmanaga o'sha davrlarda xalqaro savdodagi tovarlardan bo'lgan Xitoy chinnisi va Bulg'or charmi boshqa o'lkalardan ilgariroq yetib kelgan [4: 11-b.].

Buyuk ipak yo'li orqali olib kelingan mahsulotlar ichki bozorda juda xaridorgir bo'lgan. Ular qatorida Xitoy chinnisi, savdogarlar tomonidan mahalliy aholining sevimli ichimligiga aylangan choy, o'z davrida yuqori bahoga ega bo'lgan ipak matolar butun mamlakatimiz shaharlarida ko'plab sotib olingan.

Xulosa qilib aytganda, keltirilgan ma'lumotlarga tayanib shuni ta'kidlash jozki, savdo yo'llarining muhim nuqtasida joylashgan Zarafshon vohasining tarkibidagi shaharlar o'z davrida ancha rivojlangan ekanligini va ular o'z davrida nafaqat yirik savdo markazlariga aylangani, balki madaniy aloqalar rivoj topgan asosiy hududlar bo'lganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarov A. Ozbekiston tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
2. Muhammadjonov R. Buxoro shahri 2500 yoshda. – Toshkent: Fan, 1998.

3. Xo`jayev A. Buyuk ipak yo`li. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007.
4. Hotamov A., Xalilov Sh.Yillar sadosi. – Toshkent: Adolat, 1995.

<https://doi.org/10.34920/uzxdmk/2022/006>

ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ДИНИЙ ИДЕНТИКЛИК ШАКЛЛАНИШИНинг ТАРИХИЙ-ФУНДАМЕНТАЛ АСОСЛАРИ

Ўзму профессори, ф.ф.д. Мадаева Ш.О.

Замонавий глобал жараёнда экстремизм ва терроризм диний омилнинг деструктив омили сифатида ўзини намоён қилмоқда. Шунинг учун Ислом динининг қадрият сифатидаги мақомини кўрсата олиш, уни исломофобиядан ҳимоя қилиш миллий ва халқаро тажрибада бугунги кун учун ғоят муҳим. Ҳар қандай тажриба, метод ўз ўрнида самарали ва ўзганишга молик. Лекин, фикримизча, бу икки оғатга қарши курашда асосий восита сифатида давлатчилик стратегиясида миллий онгнинг тарихий, маданий, ментал хусусиятларидан келиб чиқсан мафкуравий иммунитетини тиклашdir. Аслида миллий XXI аср фонида нафақат Ўзбекистон, балки ўз давлатчилигини миллий тараққиёт принциплариiga қурган бошқа ривожланган давлатларда ҳам миллий тафаккур бирлиги масаласи ҳақида гапириш ғоят мушкул. Чунки глобаллашув энг аввало қадрият